

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METOD METODLAR ASOSIDA DARSLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Hazratqulova Iroda

G'allaorol tumani 60-maktab

Annotatsiya

Mazkur metodik maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixalogik xususiyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Didaktik o'yinlar, guruhli va juftlikda ishlash usullari orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajasini oshirish, mustaqil fikrlash va nutqiy faolligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, o'quvchi faolligi, ta'lim samaradorligi

Kirish

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keying ta'lim jarayoniga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda darslarni samarali tashkil etish, o'quvchilarda bilim olishga qiziqish uyg'otish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagog oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan inter faol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Asosiy qism

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar jarayonida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Darslarda didaktik o'yinlar, guruhli va juftlikda ishlash usullaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini kuchaytirdi, ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish ko'nikmalari shakllandi. Ayniqsa, sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham dars jarayonida faol ishtirok etish,

topshiriqlarni bajarishga intilishi ijobiy natija sifatida baholandi. O'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalari mustahkamlandi.

Olingan natijalar shuni shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalani ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. An'anaviy dars usullariga nisbatan interfaol metodlar o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga ko'proq mos keladi.

Dars jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, ularni erkinfikrlashga undaydi. Shu bilan birga pedagogdan darsni puxta rejalashtirish, metodlarni to'g'ri tanlash va vaqtni samarali taqsimlash talab etiladi. Interfaol metodlarning muntazam va tizimli qo'llanilishi boshlang'ich ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogic omil hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati, mushtaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligi shakllanadigan muhim davr bo'lgani sababli, bu jarayonda qo'llaniladigan metodlarning to'g'ri tanlanishi alohida kasb etadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinflar metodlardan foydalanish o'quvchilarda jamoada ishlash, o'z fikrini erkin va asosli bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Demak, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni tizimli va maqsadga muvofiq qo'llash, dars jarayonini zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish har bir pedagogning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Mazkur metodik yondashuv ta'lim sifatini oshirish bilan birga, kelajakda mustaqil fikrlaydigan, faol va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standarti. – Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi. Boshlang‘ich sinflar uchun o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar. – Toshkent, 2022.
3. Abdullayeva M., Qodirova D. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
6. Xolmatova N. Boshlang‘ich ta‘limda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2019.
7. G‘ofurov B. Ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinlarning pedagogik ahamiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.